

## **BOLA SHAXSIDA KREATIVLIK (IJODIY) QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI**

*Mirzaliyeva Saodat Raximjonovna*

*Toshkent viloyati Angren shahar*

*MMTBga qarashli 23-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixolog*

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy ta'larning dolzarb muammosi hisoblangan o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini diagnostika qilish va ijodkorlikni rivojlantirish uchun maxsus psixologik va pedagogik shart sharoitlarni yaratish masalalari ifodalangan. Kreativ fikrlovchi o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari, emotsiyal irodaviy sohasi va kasb tanlash muammolari o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, qobiliyat, diagnostika, ijod, shaxsiyat, tasavvur, originallik, emotsiyonallik.

Kreativ fikrlash timsollar va g'oyalarda, inson o'z tushunchalarini ilgari surish vao'tmishdoshlar tajribasini umumlashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Faktlarni tahakkilish, vokealar rivojini kuzatish, tadqiqot mavzusi bilan bog'lik bo'lган bilimlarni o'zarobog'lash va ijodiy farazni o'z ichiga oladi." Insonda biron bir yangilik paydo bo'lishiga olib keladigan xar kanday xarakat ijod deb ataladi. Yaratilgan narsa moddiy, aqliy yoki hissiy konstruksiya bo'ladimi bundan kat'iy nazar, faqat shu insongagina tegishli ijodiy mahsulot hisoblanadi. Ikkinchi yo'naliish Jonsonning so'zlariga ko'ra, kutilmagan, o'z-o'zidan amalga oshiradigan samarali xarakat sifatida, o'ziga ishongan xolda, ijrochi tomonidan ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir muhitida kuzatilishi mumkin bo'lган xatti-xarakatlar orqali kreativlik namoyon bo'ladi. Kreativlik, ijodiy jarayonlar insonlarda juda erta bolalik davrlaridan boshlab namoyon bo'ladi. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning muhim sohalaridan biri bu bolalarda kreativlik xususiyatlarini rivojlantirish va uni bolaning umumiy rivojlanishi uchun ahamiyatini tadqiq etish xisoblanadi. Biz bolalardagi ijodiy jarayonlarni ularning o'yinida kuzatishimiz mumkin. O'yin faoliyati jarayonida bola tayok minib, o'zini ot minib yurgandek his qiladi. Kichkina qiz qo'g'irchoq bilan o'ynab, uning onasi ekanligini tasavvur qiladi. O'yin ichida bola qaroqchi, askar yoki dengizchi bo'ladi, bu jarayonlarning hammasi eng xaqiqiy, chinakam kreativlikning namunasidir. Bolalar o'yin orqali kattalarga taqlid qiladi. Lekin bolalar o'yinlari - bu shunchaki takrorlash emas, ular kattalarning nima qilayotganini ko'radi va eshitadi, ammo bu harakatlarni o'z taassurotlaridan kelib chiqib ijodiy elementlar bilan boyitadilar. Shunisi qiziqliki, og'zaki ijodkorlikning rivojlanish darajasi ko'prok ijtimoiylashuv sharoitlari va tashki muhitning ta'siri bilan, ayni paytda xayoliy

ijodning rivojlanish darjasini ko‘prok odamning tug‘ma biologik xususiyatlari bilan bog‘lik. Maktab amaliyotida kreativ fikrlovchi bolalarni aniqlash alohida ahamiyatga ega, chunki bu bolalar o‘zlarining imkoniyatlarini ro‘yobga chikarish uchun alohida ajralib turadigan o‘kuv uslubiga muxtoj. Bundan tashkari, test eksperimental o‘kuv dasturlarini nafakat o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga ko‘mak beradigan, balki ijodiy fikrlashni rivojlantiradigan va shaxsning ijodiy imkoniyatini amalga oshirishga imkon beradigan dasturlarni ham ishlab chikishga yordam beradi. Yuqori darajada kreativ bolalar quyidagi xususiyatlarni namoyish etdilar: vokealarni erta bolalikdan eslash qobiliyati, o‘zlarining "men"ini chuqur anglash, hazil tuyg‘usi, havotirlanish va notekis rivojlanish. Notejis rivojlanish turli ko‘rinishlarda bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Ijodiy qobiliyatli bolalar g‘ayritabiiy, xayoliy javoblarni namoyish etdilar, ko‘pincha o‘zlarining rasmlarini jonlantirdilar. Rangli rasmlarning ko‘pligi tashki muhit ta’siriga chuqur hissiy munosabat tendensiyasini namoyon etadi. Kreativ fikrlovchi bolalar noaniqlik, nomutanosibliklarga osonlikcha dosh beradilar va noaniq vazifalarni yaxshi uddalaydilar. Kreativ fikrlovchi bolalarning rasmlari va boshqa asarlari yuqori darajadagi o‘ziga xoslik, quvnoqilik va mustaqillik bilan ajralib turadi. Biroq, o‘qituvchilar va sinfdoshlar uchun ularning g‘oyalari ko‘pincha g‘alati va axmoqona ko‘rinadi. Masalan: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga turli xil ijodiy o‘yinlar va jumboqlar taklif qilindi. Bolalar o‘yindagi topshiriqlarni bajarishlari va yangi g‘oyalalar ishlab chiqishlari kerak edi. Har bir guruhda beshtadan bittasi ijodiy fikrlovchi boladan iborat edi. Garchi g‘oyalarning 70% kreativ fikrlovchi bola tomonidan ilgari surilgan bo‘lsa-da, guruhning qolgan a’zolari ishning jamoaviy natijalariga qo‘shegan xissasini deyarli butunlay e’tiborsiz koldirishdi. E.Torrens tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda kreativ bolalarning turli guruhlari o‘rganildi: o‘ziga hos fikrlashi uchun yukori ko‘rsatkichga ega bolalar (o‘ziga xoslik, nostandart fikrlash, aloqador bo‘lmagan narsalarni bog‘lash qobiliyati, narsalar va hodisalarga yangi, g‘ayrioddiy tomonidan ko‘ra olish qobiliyati), g‘oyani rivojlantirish bo‘yicha yukori ballga ega bolalar (fikrni kengaytirish, davom ettirish qobiliyati) va bir vaqtning o‘zida ikkita parametr bo‘yicha yukori ball to‘plagan bolalar. O‘ziga xos fikrlashi uchun yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan o‘g‘il bolalar o‘zlaridagi quyidagi fazilatlarni ajratib ko‘rsatishdi: qiziquvchanlik, fikrning mustaqilligi, hazil tuyg‘usi, tavakkal qilish va ishbilarmonlik qobiliyati. Ular kamtarlik, hotirjamlik va konformizm kabi xususiyatlarni rad etishdi. Kelajakda ular noan’anaviy ijodiy kasbga ega bo‘lishni xohlashadi, masalan, aktyor, antropolog va boshkalar. G‘oyani rivojlantirish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan bolalar o‘zlarini sog‘lom, boshqalardan ustun bo‘lish istagi kuchli, kamtar, quvnoq va qo‘rqmas, tavakkalchilik va sezgirlik bilan ta’riflashdi. Ular yolg‘izlikni yoqtirmaydilar va o‘zlarini hissiyotga beriluvchan deb hisoblamaydilar. Ularning maktabdagi baholari o‘ziga xos fikrlashi uchun yuqori ball to‘plagan o‘g‘il bolalarga qaraganda yukori edi, ammo maktabdagi yutuqlari past edi.

Ular ko‘proq an’anaviy kasblarni tanlashdi. Ikkala parametr bo‘yicha yukori baholangan o‘g‘il bolalar tavakkalchilik qobiliyati, savol berishga moyilligi va hazil tuyg‘usi mavjudligi kayd etildi. Shuningdek, kamtarlik, hotirjamlik va tortinchoqlik ularga xos emasligi aniqlandi. Ularning maktabdagisi baholari va yutuklari oldingi ikki guruxga qaraganda yuqori edi. Ularning kasb tanlashi noan’anaviy, kelgusi faoliyatlari xilma-xillik, faollik va javobgarlikni anglatishi qayd etildi. O‘ziga xos fikrlashi uchun yuqori ball to‘plagan qizlar huddi shu guruxdagi o‘g‘il bolalar kabi xususiyatlarni aks ettirdilar. Bundan tashkari, ular diqqat markazida bo‘lish, boshqalardan ustun bo‘lish istagi, yuqori emotSIONallikni kayd etishdi. G‘oyalarni rivojlantirish uchun yuqori ball to‘plagan qizlar ham tegishli guruhdagi o‘g‘il bolalar kabi xususiyatlarni namoyon etdilar, ammo ulardan farkli o‘larok, ular o‘zlarini hissiyotga beriluvchan va ta’sirchan deb bilishardi. Ular o‘qituvchilar, psixologlar, ijtimoiy ishchilar kabi kasblarni tanladilar. Ikkala parametr bo‘yicha yukori ballga ega bo‘lgan qizlar bir vaqtning o‘zida boshqalardan ustun bo‘lish istagi, xissiyotga beriluvchanlik, raqobatlashishga moyillik, nokonformizm va emotSIONallikni kayd etdilar. Ularning kelajakdagi faoliyati xilma-xil, insoniy qadriyatlar bilan bog‘lik va ijtimoiy sohaga tegishli bo‘lishi aniqlandi. Hayotda g‘oyalarni rivojlantirish uchun yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan o‘g‘il va qizlar, o‘ziga xos fikrlovchilardan ko‘ra ko‘proq mukammallikka erishdilar va natijadan qoniqish hosil qilgunga qadarga harakat qildilar. Ota-onalar va o‘qituvchilar, odatda, g‘oyani rivojlantiruvchilarga ko‘proq ishonch bildirishadi va bu bolalar ularni ishonchini oqlolmaslikdan qo‘rqishadi. O‘ziga xos fikrlovchilar, ayniksa qizlar, o‘z oldiga yuqori maqsadlar qo‘yadilar va o‘qituvchilar, ota-onalar odatda, ularning kelajagidan katta umid qilmasliklaridan g‘azablanadilar. O‘ziga xos fikrlovchilar shaxslararo munosabatlarda raqobat uslubini afzal ko‘radi, g‘oyalarni rivojlantiruvchilar esa hamkorlikni afzal ko‘radilar. Tadqiqot davomida ushbu uchta guruxning vakillariga savol berildi: "Qanday xayotiy vaziyatlar sizni bezovta qilyapti?", "Siz uchun yokimsiz vaziyatlardan qanday chiqib ketasiz?" va xokazo. Javoblarning tahlili kuyidagi xulosalarga olib keldi. O‘ziga xos fikrlovchilar g‘oyalarni rivojlantiruvchilarga qaraganda irodali va doimiy stresslarga duch keladi. Ikkala ko‘rsatkichlar bo‘yicha qobiliyatlari bolalar bir vaqtning o‘zida stressga munosabat bo‘yicha o‘ziga xos fikrlovchilarga yaqin, ammo ular nokonformizm bilan bog‘lik bo‘lgan g‘ayrioddiiy stresslardir. O‘ziga xos fikrlovchilar va o‘ziga xos fikrlovchi-g‘oyalarni rivojlantiruvchilar ularning ustidan kulishlari, erkinlik va vaktni cheklash haqida ko‘proq tashvishlanadilar. G‘oyalarni rivojlantiruvchilar muvaffaqiyatsizlikdan va boshqalarning ishonchini oqlay olmaslikdan qo‘rqishadi. O‘ziga xos fikrlovchilar ko‘prok yangi g‘oyalar va xatti-xarakatlar strategiyasi yordamida stressni yengishga ijodkorlik bilan yondashadilar va o‘z muammolarini boshqa odamlar bilan muhokama qilishga moyil bo‘ladilar. G‘oyalarni rivojlantiruvchilar muammolardan qochishga

xarakat qiladilar. O‘ziga xos fikrlovchilar ko‘prok begonalashish va ota-onalar bilan ziddiyatlarga duch kelishadi. Qolgan ikki gurux ota-onalarning umidlari bilan o‘zlarining istaklari mos kelmasligidan qo‘rqishadi. E.Torrensning yana bir ishi kreativ va odatiy fikrlovchi o‘rta maktab o‘quvchilarini taqqoslashga bag‘ishlangan. Kreativ fikrlovchi o‘rta maktab o‘quvchilari quyidagi yo‘nalishlarni afzal ko‘rdilar: eksperimental, intuitiv, ijtimoiy bosimga karshilik. Odatiy fikrlovchi o‘rta maktab o‘quvchilarining yo‘nalishi - qoidalar va an’analarga mos, tuzilish va tartibga passiv rozilik bildirishgan. Yuqorida turlarning yo‘nalishi bo‘yicha bir qator omillarning klasterlari aniqlandi. Kreativ fikrlovchi o‘rta maktab o‘quvchilari “Kreativlik sinovlari” da yukori ball to‘pladilar. Klasterlarda kreativ fikrlashning diagnostikasi quyidagicha namoyon bo‘ldi: "Ijodiy yo‘nalish" (emotsionallik, eksperiment, ijtimoiy bosimga qarshilik ko‘rsatish) va "Yutuklar" (ijtimoiy bosimga qarshilik, eksperiment, irodaviy uslub), shuningdek "Nazorat" klasteri uchun past ko‘rsatkichlar (qoidalar, tartib va tuzilmalarga passiv rozilik bildirish). Kreativ o‘quvchilar murosasiz, ziddiyatli, yuqori emotsionallikni namoyon etadilar. Ular ichki muammolarni mustaqil hal qiladilar. Odatiy fikrlovchi o‘rta maktab o‘quvchilari yuqori emotsionallikni namoyon etmaydilar va ma’qullamaydilar. O‘zlarining kelajakdagi kasblari haqidagi savollarga javob berar ekan, kreativ fikrlovchi o‘quvchilar mexnatning ijodiy tabiatini, yukori yutuqlarga intilish va noan’anaviy faoliyat turlariga jalb qilish hakida gapirishdi. Ular ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo‘shishni, yangi narsalarni yaratishni, odamlar ongidan ustunlik va hokimiyatga ega bo‘lishni xohlashadi. Yuqorida fikrlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning har tomonlama kamol toptirish ongi va xulqatvorini shakllantirishda ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga alohida ahamiyat berish davr talabidir. Yosh avlodni yetuk, barkamol va intellektual darajasi yuqori qilib tarbiyalash hamma zamonlarda ham e’tiborli va dolzarb vazifa bo‘lib kelgan. Shu bilan birga mazkur vazifa keng xajmga ega va murakkab hisoblanadi. Shuni e’tiborga olishimiz kerakki, odam bolasining shaxs sifatida shakllanishi murakkab tadrijiy rivojlanish yo‘liga ega. Har bir bola ruhiyati o‘ziga xos bo‘lgan murakkab konfiguratsiyaga ega, shu bilan birga unga ta’sir etuvchi omillar va ularning ta’siri ham juda xilma-xildir. Bu murakkab jarayonni to‘liq o‘rganib chiqish uchun ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilishi kerak bo‘ladi. Biz e’tibor qilmoqchi bo‘lganimiz bu individning kreativ (ijodiy) qobiliyati, uni go‘daklik yosh davrida rivojlanish xususiyatlari va rivojlantirish yo‘llari xaqida. Ma’lum bo‘lishicha shaxs ontogenezinining dastlabki davrlari xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan bolaning 2-6 yoshlar orasidagi davrida sakson foizgacha shaxs xususiyatlari shakllanishi haqidagi ma’lumotlar bor. Psixologiyada mavjud bo‘lgan imprinting (qayd qilish) nazariyasining tarafdarlariga ko‘ra bolaning shaxs xususiyatlari shakllanishida ilk tajriba muhim va birinchi darajali ahamiyatga ega. Demak, bu davrning muhimligini

hisobga olib, bolada kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish yo‘llarini qidirishimiz kerak bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, bolalarda kreativlik qobiliyatini o‘stirishning quyidagi yo‘llari mavjud:

1. Tasviri san’at. Bola mazkur faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishi natijasida, undagi xayol va tasavvur jarayonlari rivojlanadi. Mazkur rivojlanish o‘z navbatida tafakkurga stimul beradi. Natijada, mazkur ikki bilish jarayonlarining muvofiqlashuvi ijodiy qobiliyatning kashf etish xususiyatini yuzaga keltiradi.

2. Musiqa. Ko‘rish sezgisi odamlarda yetakchi o‘rin tutadi. To‘qson foiz axborotni ko‘rish orqali qabul qilamiz. Ammo, musiqani ko‘rish mumkin emas. U eshitiladi va his qilinadi. Demak, musiqa bilan shug‘ullanish bola ruhiyatidagi “mudroq” xususiyatlarni jonlanishga olib kelishini taxmin qilishimiz mumkin.

3. Ertak. Ertaklar bolalarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirish uchun qudratli vosita nazarimizda. Chunki bola voqealar jarayonini tasavvur qiladi, ertaklar olamida “yashaydi”, quvonadi, qayg‘uradi. Bunday jarayon ularda ijodiy xayol(fantaziya)ni o‘sishiga xizmat qiladi.

4. Konstruktorlik o‘yinlari va boshqotirmalar. Mazkur faoliyat bolalardagi tabiiy layoqatni shakllangan tus olishiga va ijodiy qobiliyatning dastlabki kurtaklarini amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi faoliyat turlari bilan bolalarni muvaffaqiyatli shug‘ullanishlarini ta’minlash va ular orqali samarali natijalarni qo‘lga kiritish uchun televizor tomoshasi va kompyuter o‘yinlarini butunlay cheklash kerak bo‘ladi. Chunki bunday vositalar tomoshabinlik va dangasalikka ma’lum darajada moyil bo‘lgan odam ruhiyatini, aqliy faollik(aqliy mehnat) va irodaviy zo‘r berish bilan kechadigan yuqoridagi faoliyatlardan chetlanishiga olib keladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Akimova M.K. Sposobnosti i odarenost: ucheb. posobiye. – M.: Mejdunarodnaya pedagogicheskaya akademiya, 1995.
2. Shulga Ye.N. Filosofiya kreativnosti: vajneyshiye vexi izucheniya tvorchestva // Filosofiya tvorchestva. Yejegodnik. M., 2016. Vip. 2.
3. Vigotskiy L.S. Voobrajeniye i tvorchestvo v detskom vozraste: ucheb. posobiye. – M.: 2001.
4. Alekseyev, A.Yu. (2013) Problema tvorchestva v issledovaniyakh iskusstvennogo intellekta. Moskva: "Reabilitatssiya".
5. Torrance, E. P. (1981), Thinking creatively in action and movement, Bensenville (II.), Scholastic testing service.